O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230600-2.01
2021-yil “28” avgust

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “28” avgust

“MATN TURLARI VA ULARNING MOHIYATI”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 - Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230600 – Noshirlik ishi

Fan dasturi “O’zbek tilshunosligi” kafedrasining 2021-yil 7- may dagi 15-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26- may dagi 8-sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **prof. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

“Kelishildi”

SamDU o‘quv ishlari

bo‘yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi *MTVUMT4003*	O‘quv yili 2021-2022	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 3
Fan/modul turi Tanlov	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
1.	“Matn turlari va ularnung mohiyati”	30	60	90

2. **I. Fanning mazmuni**

“Matn turlari va ularnung mohiyati” fani bo’yicha tuzilgan dastur bakalavr talabalarning yetuk filolog sifatida shakllanishi uchun zarur bo’lgan tasavvurlar, bilimlar va ko’nikmalarga mo’ljallab tuzilgan. Yuksak malakali filolog bo’lish uchun mumtoz adabiy matnlarni asliyatda o’qish, o’zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolarini bilish zaruratining mavjudligi; butunjahon xalqlari madaniyati to’qnashuvi davrida milliy dunyoqarashni saqlab qolish va umuminsoniy qadriyatlarni milliy kalorit bilan boyitish qonuniyatlarini o’rganishga ehtiyojning mavjudligi; insoniyat tamaddunining adabiy munosabatlar bilan bog’liq umumiy qonuniyatlarini, ma`naviyatimiz takomilida o’z o’rniga ega adabiy-tarixiy voqelikni anglashi bilan tavsiflanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. O’zbek matnshunosligining shakllanish bosqichlari

Qadim turkiy adabiy manbalarning matniy tadqiqi. Navoiy adabiy merosi va uning ommalashuv omillari. XX asrda mumtoz adabiy merosga munosabat masalasi. Jadidlarning matnshunoslik faoliyati. Sho’rolar davrida matnshunoslik. Mustaqillik matnshunosligining o’ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu. Matnshunoslik va manbashunoslikdagi mushtarak qonuniyatlar

Matn tarixini tiklashda manbalarning o’rni. *Qo’lyozma asar nusxalarning ishonchlilik darajasini aniqlash, nusxalarning afzal tomonlarini o’zaro qiyoslar asosida farqlash qoidalarini ishlab chiqish;* Matniy tadqiqda manbalararo ta’sir masalasi. Matnshunoslik va manbashunoslik faoliyatining o’zaro uzviyligi. “Matndan – manbaga, manbadan – matnga” tizimi.

3-mavzu. Matnshunoslikning nazariy asoslari

Matn tarixi tushunchasi. Qo’lyozma matnlarni xillash, tasniflash, saralash

qoidalari. Qo'lyozma va toshbosma nusxalarning tarmoqlanishi. Asos va yordamchi nusxalarni tanlash tamoyillari. Ishonchli nusxani tiklash mezonlari.

4-mavzu. Adabiy manbalarga editsion nuqtai nazardan yondashuv tamoyillari

Asliyat va tabdil masalasi. Yig'ma va ilmiy-tanqidiy matn. Ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi sifatida. Tanqidiy matnda ilmiy apparatning o'rni. Matnga havola qilingan ilmiy ko'rsatkichlar tarkibi.

5-mavzu. Kitobatchilik tarixi

Qo'lyozmalarni kitob holiga keltirish jarayoni. Qog'ozrez (qog'oz tayyorlovchi), xattot (ko'chiruvchi), lavvoh (sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi), rassom (qo'lyozmaga miniatyuralar ishlovchi) va sahhof (muqovasoz) xizmatlari. Kitobning tuzilishi: basmala, hamd, unvon, matn. Ichki unvonlar, hoshiya, poygir, kolofon. Qo'lyozma kitobning nodirlik xususiyatlari. Qo'lyozma sanasini aniqlash mezonlari. Qog'oz turlari. Husnixat. Nasta'liq va nasx. Kolofon. Unvon. Poygir.

6-mavzu. Xattotlik

Markaziy Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Xattotlik maktablari. Hirot, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent xattotlik maktablari. Mashhur xattotlar. Badiiy ijodda husnixatning o'rni. Alisher Navoiy, Bubur, Furqat, Muqimiy, Kamiy kabi shoirlarning, Boysunqur Mirzo, G'arib Mirzo, Badiuzzamon kabi Temuriy hukmdorlarning mohir xattotlar ham ekanligi.

7-mavzu. Qadimiy toshbosma va bosma kitoblar

O'zbek matbaachilik tarixi. Toshbosmada kotibning o'rni. Toshbosma va bosma kitoblarning afzalliklari. Toshbosma matnlardagi tafovutlar. Matn tarixini tiklashda toshbosma kitoblar debochasidagi ma'lumotnomalarning ahamiyati.

8-mavzu. Matniy tafovutlarni o'rganish asoslari

Matn tahriri masalasi. Muallif tahriri. Uslub bilan bog'liq tahrir. G'oyaviy tahrir.). Nazariy xulosalar. Kotiblar bilan bog'liq tahrir. Qorishiq tahrir. (Navoiy, Bobur, Fuzuliy, So'fi Olloyor, Furqat she'riyati misolida)

9-mavzu. Sharh ilmi ildizlari

Tafsirlar sharh ilmining ildizi sifatida. Mufassirlik maktablari.

Tafsirlarning tarmoqlanishi. Hadislarga yozilgan sharh kitoblari. Turli fan sohasidagi sharh kitoblari. Adabiy manbalarga sharhlar. "Masnaviyi ma'naviy" sharhlari.

10-mavzu. Gloss, kon'ektura va interpolyatsiya

Hoshiya, sharh va kiritma matnlarning xos xususiyatlari. Gloss, kon'ektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G'arbdagi ilmiy qarashlar. Germenevtika. Talqinlarning matn mukammalligini ta'minlashdagi o'rni.

11-mavzu. Ko'p nusxali va yagona nusxali qo'lyozma ustida ishlash

Ko'p nusxali qo'lyozmalarni qiyoslash metodlari. Tayanch manbani aniqlash. Matnni muqoyasa etishning ilmiy usullari. Tayanch nusxani to'ldirishda yordamchi nusxaning ahamiyati. Yordamchi nusxalarni tasniflash mezonlari. Sharq va G'arb olimlarining yagona nusxali qo'lyozma ustida ishlash tajribalari. D.S.Lixachev usuli. Bu xususda o'zbek matnshunoslarining ilmiy qarashlari. Yagona nusxali qo'lyozmani o'rganishda yondosh manbalarni tanlash tamoyillari.

12-mavzu. Matn tarixini kompleks o'rganish

Ijodkor kontseptsiyasi, manba yo'nalishi va matn aniqligi. Matnni boshqa asarlar bilan bog'liqlikda tekshirish usullari. Birlamchi manbalarni tasniflashdagi qoidalar. Xronologik tasnif. Biografik tasnif.

13-mavzu. Qo'lyozma manbalar

Bayoz. Bayoz qo'lyozma manba sifatida. O'zFA Sharqshunoslik institutida, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida, O'zMU qo'lyozmalar muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma bayozlar. Bayoznavislik. Bayoznavis shoirlar (Kamiy, Muqimiy, Haziniy, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy).Tazkiraning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Tazkiranavislik tarixi. "Yatimatud dahr" (As-Saolibiy), "Tazkiratush shuaro" (Davlatshoh Samarqandiy), Majolisun nafois" (Navoiy), "Tazkiratul ahbob" (Nisoriy), "Majmuatush shuaro" (Fazliy Namangoniy), "Majmuatush shuaroi Feruzshohiy" (Tabibiy) kabi tazkiralarning milliy adabiyot tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati. XX asr tazkiralari. "Xiva shoirlari tarjimai holi" (Laffasiy), "Tazkirai Qayyumiy" (P.Qayyumov), "Toshkent shoirlari" (Mo'minjon Toshqin). Mazkur tazkiralar va adabiy jarayon. Devonning manba sifatidagi o'ziga xosligi. Tuzilishi Navoiy "Chor devon"i. Devonning qo'lyozma nusxalari. Ogahiyning "Ta'vizul oshiqin" devoni va qo'lyozmalari.

Ogahiy devonining o'ziga xos xususiyatlari. Sohibi devon shoirlar (Husayniy, Bobur, Ubaydiy, Munis, Komil, Feruz, Tabibiy va boshqalar). Debocha. Uning o'ziga xosligi, ijodkor biografiyasi va adabiyot tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Devonning manba sifatidagi ahamiyati. Kulliyotning manba sifatida o'ziga xosligi. Tuzilishi. Talablari. Kulliyotning ijodiy salohiyat mezoni ekanligi. Sharq adabiyotida sanoqli ijodkorlargina kulliyot tuzganlar. Navoiy kulliyotlari. Ularning xorijda va mamlakatimizda saqlanayotgan qo'lyozmalari. Kajkulning bayoz va majmualardan farqi. Kajkul tuzish an'anasi. Kajkulning muayyan ijodkor tarjimai holi, faoliyati, dunyoqarashini o'rganishdagi ahamiyati. Furqat "Kajkul"i. Uning tuzilishi.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlardan talabalarning folklor asarlarni o'qish, tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishi va erishilgan natijalarni kelgusi faoliyatlarida qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda, asosan, birlamchi nazariy manbalar bo'yicha savol-javoblar uyushtiriladi. Savol-javoblar jarayonida mavzularning umumiy xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzular:

1."Hayratul abror", "Hazoyinul maoniy" va "Mezonul avzon"ning ilmiy-tanqidiy matnlari.

2.Matn tahriri turlari.

3."Zarbulmasal" ilmiy-tanqidiy matni.

4.Navoiy asarlari tabdili.

5.Matnshunoslikning dolzarb muammolari.

6.Mumtoz adabiy manbalarga qilingan ilmiy ko'rsatkichlar.

7.Qo'lyozma va toshbosma manbalar.

8.Sharh ilmi va germenevtika.

9.Masnaviyi ma'naviy sharhi (J.Kamol tarjimasi misolida).

10."Xamsa"ning nasriy bayonlari.

11.Ko'p va yagona nusxali asar matniy tadqiqi ("Sabotul ojizin" va

"Maxzanul mute'in" asarlari misolida).

12.Matn aniqligi masalasi.

13."Majolisun nafois" tazkirasi matni.

14.Navoiyning ilk devoni matni.

15.N.Komilovning tarjima nazariyasi bilan bog'liq ilmiy qarashlari.

Izoh: Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlaydilar. Bunga jamoa bo'lib adabiy muammolar ustida bahs-munozaralar uyushtirish va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali ashyolarning ahamiyati kattadir.

Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga avvaldan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro'yxati beriladi. Seminar mashg'ulotlariga ko'proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Magistrantlar seminar mashg'ulotlarida jadidchilik harakati namoyandalari asarlarini o'rganadilar, shu davr bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda o'zlashtirilgan ma'lumot asosida jadid adabiyoti tarixi haqida tushunchaga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. "Sabotul ojizin" nusxalari va ulardagi xat turlari.

2.O'zbek yozma matnining shakllanish davrlari "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" kitobiga ilmiy obzor.

3."Muhabbatnoma"ning qo'lyozma nusxalari.

4."Boburnoma" matni.

5. "Hayratul abror"da harf san'ati.

6. Sa'diy "Guliston"dagi hikoyatlar matni.

7. “Mahbubul qulub” tanbehlari.

8. “Nazmul javohir”matni.

9. Lutfiy g’azallari matni.

10. P.Shamsievning matnshunoslikka oid tadqiqotlari.

11. Navoiy qit’alari talqini.

12. Qadimgi turkiy adabiy manbalarda ifoda va bayon.

13. Lug’at ilmi.

14. “Xazoyinul ma’oniy”ga tuzilgan ilmiy ko’rsatkichlar tavsifi.

Izoh: Seminar mashg’ulotlari talabalarni matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka oid ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tahlil va talqin etishga yo’naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini darslarda munozara yoki ma’ruza shaklida himoya qiladi.

Mazkur ro’yxatdagi mavzulardan seminar mashg’ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

““Matn turlari va ularnung mohiyati” fanini o’rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni echishda ko’nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra o’qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo’shimcha adabiyotlarni o’rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg’ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko’rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

- amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg’ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
- tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruza qismini o’zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo’yicha fan bo’limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari hamda mavzularni chuqur o'rganish;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O'zbek matnshunosligi tarixi: ilmiy-tanqidiy matn; matnshunoslikning dolzarb muammolari.
2. P.Shamsievning o'zbek matnshunosligining shakllanishidagi o'rni.
3. "Mezonul avzon"ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish printsiplari.
4. A.Rustamiy – matnshunos.
5. V.Rahmonovning matniy tadqiq bo'yicha kuzatishlari.
6. Qo'lyozma kitoblarga tuzilgan kataloglar tarkibi.
7. Furqat ijodini o'rganish muammolari.
8. Adabiy maktablarning ma'rifatparvarlik adabiyotida tutgan o'rni.
9. Mustaqillik davri matnshunosligi.
10. Kundalik matbuotdagi matnshunoslik mavzusidagi bahs-munozaralar.
11. Cho'lpon she'rlarining matniy tadqiqi.
12. "Xamsa" dostonlarining nasriy bayonlari.
13. O'zbek matnshunosligining shakllanish bosqichlari.
14. "Nasoyimul muhabbat"ning ilmiy-tanqidiy matni.
15. Matnshunoslikning adabiyotshunoslik va tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni.
16. D.S.Lixachevning matn tahriri bilan bog'liq qarashlari.
17. Tayanch nusxani aniqlash mezonlari.
18. Arxivshunoslik.
19. Kodikologiya.
20. Paleografiya.
21. N.Jumaxo'janing matnshunoslik mavzusidagi tadqiqotlari.
22. Istiqlol davri o'zbek matnshunosligidagi sifat o'zgarishlari.
23. Hozirgi adabiy jarayon va matnshunoslik.
24. "Zubdatut tavorix" matni.
25. Nashr turlari.
26. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar.
27. Matnshunoslikda ilmiy tavsif.
28. "So'z xususida so'z" kitobida istilohlar talqini.
29. Matn tili muammolari.
30. Matnshunoslikda lug'at ilmining ahamiyati.
31. Gloss. Sharhlarga sharhlar.
32. Matnshunoslikda matn tushunchasi.
33. Matnni tushunishda ijodkor kontseptsiyasini aniqlash omili.
34. Tabdil muammolari.
35. Sh.Sirojiddinov – matnshunos olim sifatida.

Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo‘nalishlarini ma’naviy-ma’rifiy tahlil qilish; - talabalar gloss, kon`ektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G’arbdagi ilmiy qarashlar, hoshiya, sharh va kiritma matnlarning xos xususiyatlari, gloss, kon`ektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G’arbdagi ilmiy qarashlar xususida ma`lumotga ega bo`lish; - germenevtika va talqinlarning matn mukammalligini ta`minlashdagi o’rnini tushuntirish.Tushuntirish ilmining matn mukammaligini ta`minlashdagi o’rni haqida bilimlar bazasiga ega bo’lish; - Mumtoz matn turlarining muammolari va istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish; - ko’p nusxali qo’lyozmalarni qiyoslash, tayanch manbani aniqlash, matnni muqoyasa etish; - bayoz, tazkira, kajkul, devon, kulliyotlarning qo’lyozma manba sifatidagi xususiyatlari haqida ko`nikma hosil qilish; - mumtoz asarlarni o’qitish malakasi va tadqiqot metodlarini qo‘llay olish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko‘rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta’lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Sh.Sirojiddinov, S.Umarova “O’zbek matnshunosligi qirralari” T.: Akademnashr, 2015

2. Zohidov R. "Sabotul ojizin" asari manbalari, sharhlari va ilmiy tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari –T.:Muharrir, 2015.
3. Abdusalom Muhammad. Tahqiqun nusus va nashriha. Kohira: Maktaba Xonji, 1995

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Lixachev D.S. Tekstologiya. –M.-L.: ANS. 1962.
5. Reyser S. A. Osnovo' tekstologii. –L.: Prosvehenie. 1978.
6. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiev), –T.: Fan, 1970.
7. Zufarov T. Xat ta'limi. –T.: Meriyus, 2010.
8. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademnashr, 2010.
9. Ishoqov F. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari. T.: "Fan", 1976.
10. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.
11. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.
12. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.
13. Katolog fonda instituta rukopisey. 1 tom. – T.: Fan, 1989.
14. Komilov N. Bu qadimiy san'at... T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1987.
15. Pravila podgotovki k izdaniyu pamyatnikov literaturo' Vostoka.– M.: IVL, 1959.
16. Sirojiddinov Sh., Alisher Navoiy manbadarining qiyosiy, tipologik-tekstologik tahlili. T.: Akademnashr, 2011

Internet saytlari

17. www.ziyo-net.uz
18. www.literature.uz
19. www.kutubxona.uz

7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021-yil ___-_____dagi ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** S.Umirova - SamDU, o'zbek tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi (PhD) S.Qurbonov– SamDU, o'zbek tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** D.O'rinboyeva SamDU, o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki) X.Xayrullayev – SamDU professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)

Samarqand davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan "Matn turlari va ularnung mohiyati" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

Dunyodagi har bir xalq o'zining yozma tarixiga ega. Bu tarixni o'rganishda hech bir manba yozma yodgorliklardek batafsillikka da`vo qilolmaydi. Ajdodlarimiz hayotini butun tafsilotlarigacha bag'riga joylagan qo'lyozma manbalar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ko'prik. Insoniy tamaddun tarixida qadimiy qo'lyozmalarning ahamiyati shu darajada ekan, bu bebaho ma`naviy merosga chinakam voris bo'lish uchun ularni chuqur o'rganish, o'rganilganda hosil bo'lgan bilimni ommalashtirish talab qilinadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma`naviy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklash ishlariga e`tibor kuchaydi. Natijada millat ruhiyatida o'z-o'zini anglash tuyg'usi yanada jonlandi, ajdodlar qoldirgan ma`naviy merosga voris bo'lish ishtiyoqi uyg'ondi. SHu ma`noda, qadim adabiy manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal ilmiy izohlar,ko'rsatkichlar bilan ta`minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fondlarda mavjud qo'lyozma va toshbosma matnlarni o'qish va tadqiq etish malakasiga ega bo'lish bo'lajak filologlar uchun muhim vazifadir.

"Mumtoz matn turlari" fanining vazifalari – talabalarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalarihaqida tasavvur tug'dirish, eski o'zbek yozuvidagi manbalarni o'qish, uqish, tahlil va talqin qilishga o'rgatish. qadimiy matn adabiy-badiiy asar tahliliga o'rgatishdan iborat.

"Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi"

Shu nuqtayi nazardan "Mumtoz matn turlari" nomli fan dasturi "Mumtoz matn turlari" fani ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

X.Xayrullayev **SamDU professori, f.f.d.. (tashqi)**

Samarqand davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan "Mumtoz matn turlari" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan keyin qadimiy manbalar va ularning matnini o`rganishga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa matnshunos va manbashunos mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Natijada millat ruhiyatida o'z-o'zini anglash tuyg'usi yanada jonlandi, ajdodlar qoldirgan ma`naviy merosga voris bo'lish ishtiyoqi uyg'ondi. SHu ma`noda, qadim adabiy manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal ilmiy izohlar,ko'rsatkichlar bilan ta`minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fondlarda mavjud qo'lyozma va toshbosma matnlarni o'qish va tadqiq etish malakasiga ega bo'lish bo'lajak filologlar uchun muhim vazifadir.

"Mumtoz matn turlari" fanining vazifalari – talabalarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalarihaqida tasavvur tug'dirish, eski o'zbek yozuvidagi manbalarni o'qish, uqish, tahlil va talqin qilishga o'rgatish. qadimiy matn adabiy-badiiy asar tahliliga o'rgatishdan iborat.

"Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi"

Shu nuqtayi nazardan "Mumtoz matn turlari" nomli fan dasturi ""Mumtoz matn turlari" fani ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan. Ushbu fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi.

D.O'rinboyeva **SamDU,**
O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
f.f.d. (ichki)